


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**70220303 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni  
o‘qitish metodikasi (*Tarix*)  
magistratura mutaxassisligining**

**MALAKA TALABI**

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil « 1 » 08 dagi 277- sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	5
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	5
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>9</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>10</b>
<b>Kelishuv varag'i .....</b>	<b>11</b>



## 1. Umumiy tavsifi

70220303 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta‘lim shaklida amalga oshiriladi. Magistraturada o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil. Magistratura o‘quv dasturining hajmi ta‘lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta‘lim texnologiyalaridan qat‘iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o‘quv yili uchun magistratura ta‘lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoniga ko‘ra, 70220303 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi magistraturasida o‘qish uchun kamida B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

### 1.1. Qo‘llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70220303 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

mutaxassisligi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas‘ul oliy ta‘lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;

mutaxassislikning o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;

o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

oliy ta‘lim muassasasini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

mutaxassislikni ixtiyoriy tanlash huquqiga hamda bakalavriat darajasiga ega bo‘lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o‘rta ta‘limda tarix fani o‘qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o‘rta maxsus va professional ta‘limda tarix fani o‘qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

oliy ta‘limda tarix fani o‘qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;



qayta tayyorlash, malaka oshirish bo'yicha ta'lim muassasalarida tarix fani o'qituvchisi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

Umumiy o'rta, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari; ta'lim sifatini monitoring qilish bo'limlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari**

*ilmiy-pedagogik;*

*ma'naviy-ma'rifiy;*

*tashkiliy-boshqaruv;*

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari**

70220303 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

#### **Ilmiy pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashv etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va



o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish;

o'qitish metodikasini egallash;

oliy va umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;

uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqloq g'oyasini singdirish;

talabalarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;

ijrochilar va ilmiy tadqiqot jamoasi ishini tashkil qilish va boshqarish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

qabul qilinayotgan qarorlarni miqdoriy va sifat bo'yicha baholash, ilmiy yutuqlarni qo'llay olish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;



atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;

magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

mutaxassisliklari bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

mutaxassisliklari doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ITIlarda tayanch doktorant va mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

foydalanishda tarixiylik, aniqlik, xolislik, ishonchlilik tamoyillarini qo'llay bilishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

ilmiy loyihalarning samaradorligini baholash hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ilmiy tadqiqot sohasi bo'yicha aniq tarixiy konseptual yondashuvga ega bo'lish, strategik rejalarni ishlab chiqish, tarixshunoslik va manbashunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy muammolarning nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tadbiiq etishni bilish;

loyihalarning tarixiy-iqtisodiy hamda siyosiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy-tarixiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

tarixiy tadqiqot usullarini olib borishda kerakli meyoriy-huquqiy hujjatlarni to'g'ri qo'llay bilish va amaliy natijaga erishish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot - oliy ta'lim muassalaridagi ta'lim jarayonlarini tashkillashtirish bilan tanishish, ya'ni bo'limlar strukturasi va vazifalari, o'quv jarayonini tashkil qilishdagi va o'quv jarayonining direktiv va normativ hujjatlari, pedagogik faoliyatning boshlang'ich mahorat ko'nikmalarini o'rganish, ta'lim muassalarida o'tkaziladigan ilmiy ishlarda qatnashish, tanlab olingan fan bo'yicha amaliyot davrida vazifalarni bajarish (rahbar nazorati ostida), shu fanni o'tish bo'yicha uslubiy reja ishlab chiqishdan iboratdir.



#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
<b>1.00.</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>1-4</b>
1.01.	ITM1205	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	2
1.02.	YAO'TSTTI1 105	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar	150	5	1
1.03.	OPTMFO'M1 105	Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	150	5	1
1.04.	TFM 1305	Tarix fani metodologiyasi	150	5	3
1.05	KM1305	Kasbiy ma'naviyat	150	5	3
1.06	JSTDM1405	Jahon sivilizatsiyalari tarixining dolzarb muammolari	150	5	4
<b>2.00.</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi			
<b>3.00.</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, maktabgacha ta'lim, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy holat, sport, sport turlari, mashg'ulot, o'yin, musobaqa, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.




**Kelishuv varag'i**

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti**

Rektor  **A. Kirgizbayev**

2024-yil  07




**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti

Direktor  **M. Boltabayev**

2024-yil  08



Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor  **I. Madjidov**

2024-yil  07




O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'limi markazi

Rektor  **G. Muxamedov**

2024-yil  07



Direktor  **Sh. Xudaykulov**

2024-yil  07

